



**RAQAMLI DAVRDA AXLOQIY PARADIGMANING
O'ZGARISHI: AL-FAROBIIY MEROSINING
AKSIOLOGIK TALQINI**

**TRANSFORMATION OF THE ETHICAL
PARADIGM IN THE DIGITAL AGE: AN
AXIOLOGICAL INTERPRETATION OF AL-
FARABI'S HERITAGE**

**ИЗМЕНЕНИЕ ЭТИЧЕСКОЙ ПАРАДИГМЫ В
ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ: АКСИОЛОГИЧЕСКАЯ
ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАСЛЕДИЯ АЛЬ-ФАРАБИ**

FAN TARMOG'I
09.00.00 – Falsafa

QABUL QILINDI
30.08.2026

CHOP ETILDI
02.09.2026

Gulchehra G'affarova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti professori, falsafa fanlari doktori (DSc)

ANNOTATSIYA

Maqolada raqamli transformatsiya sharoitida insoniyat ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining o'zgarishi va bu jarayonda Al-Farobiy axloqiy ta'limotining o'rni tahlil qilinadi. Mutafakkirning «Fozil odamlar shahri» konsepsiyasi zamonaviy «infosfera» va «raqamli jamiyat» kontekstida qiyosiy o'rganiladi. Shuningdek, raqamli gumanizmni shakllantirishda Sharq peripatetizmining aksiologik imkoniyatlari ochib berilgan. Ushbu maqolada global raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal kirib kelishi sharoitida insoniyat ma'naviy-axloqiy paradigmasida yuz berayotgan transformatsiyalar tahlil qilinadi. Muallif tomonidan raqamli gumanizmni shakllantirishda Sharq peripatetizmining metodologik va aksiologik imkoniyatlari ochib beriladi hamda zamonaviy texnologiyalar va inson ma'naviy olami o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashning konseptual asoslari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli etika, Abu Nasr Farobiy, jamiyat, fozil jamiyat konsepsiyasi, axloqiy paradigma, raqamli gumanizm, sun'iy intellekt, sun'iy intellekt etikasi, baxt-saodat nazariyasi, infosfera, algoritmik mas'uliyat, raqamli madaniyat.

ABSTRACT

The article analyzes the transformations of humanity's spiritual and moral values in the context of digital transformation and the rapid integration of artificial intelligence technologies. The thinker's concept of the "Virtuous City" is comparatively examined within the framework of the modern "infosphere" and "digital society." The author reveals the methodological and axiological capabilities of Eastern Peripateticism in shaping digital humanism, and substantiates the

conceptual foundations for ensuring harmony between modern technologies and the human spiritual world.

Keywords: digital ethics, Abu Nasr al-Farabi, society, concept of the virtuous society, ethical paradigm, digital humanism, artificial intelligence, AI ethics, theory of happiness, infosphere, algorithmic responsibility, digital culture.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются трансформации духовно-нравственных ценностей человечества в условиях цифровой трансформации и стремительного внедрения технологий искусственного интеллекта. Сравнительно изучается концепция мыслителя «Добродетельный город» в контексте современной «инфосферы» и «цифрового общества». Раскрываются методологические и аксиологические возможности восточного перипатетизма в формировании цифрового гуманизма, а также обосновываются концептуальные основы обеспечения гармонии между современными технологиями и духовным миром человека.

Ключевые слова: цифровая этика, Абу Наср аль-Фараби, общество, концепция добродетельного общества, этическая парадигма, цифровой гуманизм, искусственный интеллект, этика искусственного интеллекта, теория счастья, инфосфера, алгоритмическая ответственность, цифровая культура.

KIRISH

XXI asrda texnologiyalar nafaqat turmush tarzimizni, balki axloqiy qarashlarimizni ham o'zgartirib yubordi. Raqamli davr nafaqat texnologiyalarning rivojlanishi, balki insoniyatning ma'naviy-axloqiy qarashlari tubdan qayta ko'rib chiqilayotgan davrdir. Global tarmoq, sun'iy intellekt va virtual borliq an'anaviy axloq meyorlarini yangicha talqin qilishni taqozo etmoqda. Albatta, raqamli muhitda shaxsning xulq-atvori, virtual muloqot madaniyati va axborot bilan ishlash etikasi yangi paradigmani talab qilmoqda.

Aytish mumkinki, oxirgi o'n yilliklarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson hayotining deyarli barcha sohalari va jihatlariga kirib bordi. Bundan tashqari, globallashtirish va raqamlashtirishning jadal rivojlanishi nafaqat atrofdagi ijtimoiy-madaniy muhitda ontologik o'zgarishlarga, balki inson dunyoqarashining o'zgarishiga ham olib keldi, ularning dunyoqarashi, voqealar va jarayonlarni tushunishi, baholashi va talqiniga ta'sir ko'rsatdi.

Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda Sharq peripatetizmi, xususan, Abu Nasr Farobiy merosi orqali zamonaviy axloqiy muammolarga yechim izlash akademik va amaliy jihatdan juda yuqori dolzarblikka ega. Albatta, raqamli transformatsiyaning axloqiy tamoyillari ma'lumotlar maxfiyligi, kiberxavfsizlik, ijtimoiy tenglik, ekologik barqarorlik, shaxslar va jamoalarning

farovonligi bilan bog‘liq muammolarni hisobga olgan holda innovatsiya va ijtimoiy ta’sir o‘rtasidagi muvozanatga erishishga qaratilgan. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari insoniyatga murakkab ta’sir ko‘rsatadi, abadiy axloqiy muammolarni yanada kuchaytiradi va yangi axloqiy muammolarni keltirib chiqaradi.

ASOSIY QISM

Raqamli transformatsiya va sun‘iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy ijtimoiy-filosofik va axloqiy tadqiqotlarda yangi paradigmalarni talab etmoqda. Mazkur muammoni tahlil qilishda ilmiy adabiyotlar shartli ravishda uchta asosiy yo‘nalishga bo‘linadi:

zamonaviy raqamli etika va infosfera konsepsiyalari. L. Floridi tomonidan ilgari surilgan «infosfera» va «onlayf» (onlife) konsepsiyalari raqamli muhitda axloqiy munosabatlarning axborot subektlari o‘rtasidagi murakkab tizimga aylanganini ko‘rsatadi [11]. Shuningdek, N. Bostrom, E. Yudkovski va S. Vallor tadqiqotlarida sun‘iy intellekt, algoritmik tizimlar hamda texnologik fazilatlarning axloqiy mas’uliyat doirasi, inson qadriyati va mustaqilligiga ko‘rsatadigan ta’siri chuqur o‘rganilgan [7; 13].

Raqamli gumanizm va aksiologik devalvatsiya. Raqamli jamiyatda shaxs ayniyati, transgumanistik xavf-xatarlar va ma’naviy qadriyatlarning transformatsiyasi J. Neysbit va R. Kapurro asarlarida o‘z aksini topgan [12; 9]. Ular raqamli infratuzilmaning kengayishi insonning ichki ma’naviy ehtiyojlari va axloqiy oriyentirlarining zaiflashuviga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydilar. asarlarida o‘z aksini topgan

Sharq peripatetizmi va Al-Farobiyning axloqiy-aksiologik merosi. Abu Nasr Farobiyning «Fozil odamlar shahri» va «Baxt-saodatga erishish haqida» asarlaridagi fazilat, axloq, jamiyat va baxt-saodat nazariyasi M.M. Xayrullayev [3], shuningdek, zamonaviy farobiyshunos va tadqiqotchilar N.L. Seytaxmetova [6], G.G. Gaffarova [5] hamda O.T. Berkinov [4] tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Biroq Farobiyning aksiologik modelini bevosita zamonaviy «raqamli gumanizm» va algoritmik etika muammolari bilan sintez qilish masalasi hali ham mustaqil va kompleks tadqiqot sifatida o‘z yo‘nalishini kutmoqda.

Ushbu tadqiqotda raqamli jamiyatdagi axloqiy paradigma transformatsiyasini tahlil qilish va Al-Farobiyning aksiologik konsepsiyasini zamonaviy muhitga integratsiya qilish uchun kompleks metodologik yondashuv qo‘llanilgan: aksiologik yondashuv (raqamli asrda inson qadriyati, axloqiy meyorlar va baxt-saodat tushunchalarining transformatsiyasini baholashda asos bo‘ladi); germeneytik va tekstologik usul (Al-Farobiy asarlaridagi «fozil jamiyat», «fazilat», «aql» va «baxt-saodat» kategoriyalarini zamonaviy raqamli etika nuqtai nazaridan sharhlashga xizmat qiladi); qiyosiy-komparativistik tahlil (Sharq peripatetizmi axloqiy modellari

hamda zamonaviy IT-etika (algoritmik mas'uliyat, sun'iy intellekt gumanizmi) o'rtasidagi konseptual umumiylik va farqlarni ochib beradi); transdissiplinar yondashuv (falsafa, informatika, sotsiologiya va pedagogika fanlari tutashgan nuqtada raqamli gumanizmning nazariy-amaliy modellarini ishlab chiqishni ta'minlaydi).

Al-Farobiyning falsafiy merosini raqamli davrdagi axloqiy transformatsiyalar kontekstida tahlil qilish – bu shunchaki tarixiy qiyoslash emas, balki "raqamli gumanizm" uchun metodologik asos qidirishdir. Raqamli davrda axloqiy paradigma "texnik samaradorlik" tomonga og'ib ketgan bir paytda, Farobiyning "aksiologik determinizmi" (qadriyatlar orqali belgilanish) muhim ahamiyat kasb etadi.

Al-Farobiyning axloqiy paradigmasi raqamli davrda o'zgarib, o'rta asr kontekstidan insonga yo'naltirilgan aksiologik talqinga o'tmoqda. Raqamlashtirish kontekstida mutafakkirning "fazilatli shahar" merosi raqamli etika tamoyillari orqali qayta ko'rib chiqishni talab qiladi, bu yerda texnologiya gumanistik maqsadlarga xizmat qiladi, individual ijodkorlikni rivojlantirish va uyg'un raqamli jamiyatni yaratishga yordam beradi. Bunday sharoitda «Ikkinchi muallim» – Abu Nasr Farobiyning axloqiy ideallarini raqamli davrga implementatsiya qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Farobiy o'zining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida jamiyatni axloqiy poydevorga qurishni taklif etadi. Uning fikricha, fozil shahar ahli bir-biriga ezgulik va baxt-saodat yo'lida ko'maklashadi [2]. Raqamli davrda ushbu «ko'maklashish» tushunchasi global bog'lanish (global connectivity) shakliga o'tdi. Biroq, Farobiy ta'kidlagan «ezgu maqsad» o'rnini ko'pincha algoritmik manipulyatsiyalar yoki raqamli gedonizm egallamoqda. Darhaqiqat, «fozil shahar» va zamonaviy raqamli ekotizim o'rtasidagi axloqiy mushtaraklikni o'rganish – bu nafaqat tarixiy qiyoslash, balki kelajakdagi raqamli jamiyatning ma'naviy-etik modelini loyihalashtirish demakdir.

«Fozil shahar» va raqamli ekotizim: axloqiy mushtaraklik va sinergiya. Al-Farobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» asarida jamiyatni tirik organizmga qiyoslaydi. Mutafakkirning fikricha, «...shahar ahlining o'zaro yordami ularni saodatga erishtirish maqsadini ko'zlagan bo'lsa, bunday shahar fozil shahar bo'ladi» [1]. Undagi har bir a'zo umumiy maqsad – saodatga erishish yo'lida o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiradi.

Zamonaviy raqamli ekotizim ham xuddi shunday detsentralizatsiyalashgan, ammo o'zaro zich bog'langan tarmoqdir. Biroq, Farobiy tizimidagi bog'lanish «irodaviy fazilat»ga asoslangan bo'lsa, raqamli ekotizimda bu bog'lanish «algoritmik texniklik»ka tayanadi. Ikki tizimning mushtarakligi – axborot almashinuvining jamiyat yashovchanligini ta'minlovchi asosiy omil ekanligidadir.

Farobiy borliqni va bilimlarni qat'iy iyerarxik tartibda tasavvur qilgan. Uning «ilmlar tasnifi» asari bugungi kundagi «semantik to'r» va ma'lumotlar

klassifikatsiyasi uchun ma'naviy prototipdir. Raqamli ekotizimda ma'lumotlarning bilimga aylanishi aynan Farobiy ta'kidlagan mantiqiy ketma-ketlikka muhtoj. Raqamli jamiyatdagi axloqiy inqiroz – ma'lumotlarning ko'pligida emas, balki ularning Farobiy tizimidagi kabi «hikmat» darajasiga ko'tarila olmaganidadir.

Raqamli axloq va fozil shahar mezonlari. Farobiy fozil shahar rahbari va a'zolari uchun 12 ta tug'ma va erishiladi fazilatni (idrok, xotira, adolat, haqiqatsevarlik va h.k.) sanab o'tadi. Zamonaviy raqamli ekotizimda bu fazilatlar «raqamli etika» va «kiber-xavfsizlik madaniyati» shaklida qayta talqin qilinishi lozim.

Haqiqatsevarlik: raqamli davrda «fake news» (yolg'on xabarlar)ga qarshi kurash – Farobiyning haqiqatni yolg'ondan ajratish haqidagi talabining texnologik ifodasidir.

Adolat: Algoritmning (AI) xolisligi va kamsitmasligi (Algorithmic Bias) – mutafakkirning ijtimoiy adolat konsepsiyasi bilan hamohang.

Ta'kidlash kerakki, «infosferada axloqiy agentlik – bu nafaqat insonlar, balki axborot oqimini boshqaruvchi tizimlarning ham mas'uliyatidir» [10: 94].

Farobiyning ideal shahri – bu intellektual markazdir. Zamonaviy «smart city» (aqlli shahar) konsepsiyasi ham texnologiyalar yordamida inson hayotini qulay qilish va resurslarni boshqarishni nazarda tutadi. «Smart city» faqat temir va simlardan iborat bo'lsa, u Farobiy ta'kidlagan «johil shahar»ga (faqat moddiy manfaatni ko'zlovchi jamiyat) aylanib qoladi. Raqamli ekotizimning «fozil» bo'lishi uchun unga «raqamli gumanizm» tamoyillarini kiritish – ya'ni texnologiyani inson qadrigimmatiga xizmat qildirish shart.

Al-Farobiyning «Fozil shahar» konsepsiyasi raqamli ekotizim uchun quyidagi axloqiy «yo'l xaritasi»ni taklif etadi: algoritmik fazilat (Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlarni boshqarishda axloqiy filtrlarni joriy etish); raqamli saodat (texnologiyalardan maqsad – faqat foyda emas, balki shaxsning ma'naviy va intellektual kamoloti bo'lishi lozim); global hamkorlik (raqamli tarmoqlarni Farobiy aytgan «insoniyatning o'zaro yordami» maydoniga aylantirish).

Zamonaviy jamiyatda qaror qabul qilish funksiyasi algoritmarga o'tayotgan bir paytda, Farobiyning jamiyatni ma'naviy birlik sifatida ko'rishi dolzarbdir. Manuel Kastels fikricha, "tarmoq jamiyatida axborot oqimi qadriyatlar iyerarxiyasini o'zgartirib yuboradi" [8]. Farobiy merosi esa texnologiyani emas, balki inson kamolotini (saodatni) ijtimoiy taraqqiyotning oliy mezonini sifatida belgilashni talab qiladi.

Raqamli davrda ta'lim paradigmasi "bilish"dan "iste'mol qilish"ga o'zgardi. M.M. Xayrullayev ta'kidlaganidek, "Farobiy aql va axloqning birligini inson komilligining bosh sharglari deb bilgan" [3]. Bugungi kunda "Computational Thinking" (hisoblash tafakkuri) Farobiy ta'riflagan "Nazariy aql" va "Amaliy aql" muvozanati, ya'ni texnik mahoratning axloqiy maqsadga bo'ysundirilishi bilan boyitilishi zarur.

Farobiy merosi raqamli davr uchun eskirgan tarix emas, balki axborot ummonida yo'lni ko'rsatuvchi «ma'naviy kompas»dir. Biz texnologiyani «Fozil shahar» prinsiplari bilan sug'ormas ekanmiz, raqamli ekotizim insonni erkin qilish o'rnini, uni algoritmlar quliga aylantirish xavfini tug'diraveradi.

Ta'kidlash kerakki, raqamli davrda axloqiy paradigmaning o'zgarishi shunchaki yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi emas, balki insonning borliqqa, jamiyatga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatining transformatsiyasidir. Bu jarayon quyidagi fundamental yo'nalishlarda namoyon bo'lmoqda:

birinchidan, an'anaviy axloqda shaxs o'z xatti-harakatlari uchun yuzma-yuz javobgar bo'lgan bo'lsa, raqamli makonda anonimlik axloqiy mas'uliyat hissini susaytirmoqda;

ikkinchidan, inson virtual olamda o'z ismi va qiyofasini yashirishi natijasida ijtimoiy normalardan oson voz kechmoqda (masalan, kiberbulling yoki nafrat tili);

uchinchidan, insonning real hayotdagi axloqi bilan virtual profilidagi xulq-atvori o'rtasida uzilish yuzaga kelmoqda (avatar axloq).

Aytish kerakki, raqamli makonda shaxsning virtuallashuvi axloqiy mas'uliyat chegaralarini xiralashtirmoqda. Luchano Floridi ta'kidlaganidek, "biz nafaqat onlayn yashaymiz, balki axborot muhitining bir qismiga aylanmoqdamiz" [10]. Bunday sharoitda Forobiyning "irodaviy tanlov" (iroda al-ixtiyoriya) haqidagi ta'limoti raqamli agentlikning axloqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Mutaфakkir fikricha, "inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy kamolotga erishish uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi" [2, 184].

Albatta bugungi kunda ilgari axloqiy tanlov faqat insonga xos bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda algoritmlar va sun'iy intellekt (SI) qaror qabul qilish jarayoniga aralashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar bizga nimani ko'rishni va kim bilan muloqot qilishni belgilab bermoqda, bu esa insonning irodaviy erkinligini cheklaydi. Shuningdek, raqamli davrda "shaxsiy hayot daxlsizligi" axloqiy qadriyat sifatida inqirozga yuz tutmoqda.

Axloqiy paradigmaning eng katta o'zgarishlaridan biri – haqiqat kategoriyasining nisbiylashib qolganidir. Vizual va matnli ma'lumotlarni manipulyatsiya qilish imkoniyati insonlar o'rtasidagi ishonch (trust) institutini yemirib bormoqda. Algoritmlar insonni faqat uning qarashlariga mos keladigan axborot bilan o'rab qo'yadi, bu esa boshqa axloqiy qarashlarga nisbatan toqatsizlikni (intolerantlik) oshiradi.

Zamonaviy raqamli axloq muammosi shundaki, algoritmlar va sun'iy intellekt "axloqiy agent" maqomiga da'vo qilmoqda. Biroq, Forobiy ta'limotiga ko'ra, axloq – bu faqat bilim emas, balki "irodaviy tanlov" (iroda al-ixtiyoriya) natijasidir [2]. Agar raqamli algoritmi inson uchun qaror qabul qilsa, inson "axloqiy subyekt" sifatidagi maqomini yo'qotadi. Forobiy ta'kidlagan "aqliy kuch" (al-quvva al-aqliya) raqamli

makondagi ma'lumotlarni shunchaki qabul qilish emas, balki ularning mohiyatini anglash va axloqiy filtrdan o'tkazish demakdir. Bugungi "post-haqiqat" davrida Forobiyning haqiqatni anglash borasidagi mantiqiy-etik yondashuvi axborot xavfsizligining ma'naviy qalqonidir.

Raqamli davrda "jamoaviy intellekt" tushunchasi paydo bo'ldi. Forobiy qarashicha, jamiyat a'zolarining birlashishidan maqsad – eng oliy kamolot (saodat)ga erishishdir. Agar raqamli platformalar insonni degradatsiyaga, nafratga yoki iste'molchilikka yo'naltirsa, u Forobiy tasnifidagi "johil shahar"ning raqamli ko'rinishiga aylanadi. Mutaфakkrning "muhabbat va adolat" tamoyili virtual aloqalarni insonparvarlashtirish uchun fundamental asos bo'la oladi.

Forobiy "Fozil shahar" boshqaruvchisi uchun 12 ta tug'ma va qozongan fazilatni (o'tkir zehn, xotira, adolatparvarlik va h.k.) belgilagan. Raqamli davrda boshqaruv tizimlari (Big Data, AI) ushbu funksiyalarni o'z zimmasiga olmoqda. Forobiy merosining aksiologik talqini shuni ko'rsatadiki, har qanday texnologik boshqaruv tizimi "axloqiy ideal"dan mahrum bo'lsa, u zulm vositasiga aylanadi. Raqamli davrning "Birinchi rahbari" – bu algoritm emas, balki ushbu texnologiyalarni insoniyat farovonligiga yo'naltira oladigan, Forobiy ta'riflagan "hakim" (mutafakkir) obrazidagi inson kapitalidir.

Albatta, raqamli davrda axloqiy paradigma texnik samaradorlik foydasiga o'zgarib bormoqda. Bunda inson kapitalining ma'naviy qismini saqlab qolish uchun texnologiyani axloqiy filtrdan o'tkazish – davr talabidir.

Al-Farobiy merosining aksiologik talqinining bugungi kundagi asosiy jihatlari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

ideal jamiyat tushunchasini bilim, axloq va hamkorlik hukmronlik qiladigan raqamli jamoalarga tarjima qilish, vayronagarchilik uchun johillik va texnologiya o'rniga;

axborot makonida yaxshilikni yomondan ajrata oladigan ongli foydalanuvchini rivojlantirishga urg'u berish, bu al-Farobiyning "faol ong" va dunyoni musiqiy va ijodiy idrok etish haqidagi ta'limotlari bilan aks etadi;

Al-Farobiyning peripatetizmga asoslangan falsafasi gumanistik yondashuv zarurligini ta'kidlaydi, bunda yuqori texnologiyalar (AI, Big Data) shaxsni begonalashtirishga emas, balki rivojlantirishga qaratilgan.

soxta yangiliklar davrida fanni g'oyalar va dalillarga ajratgan mutafakkirning mantiqiy merosi dolzarb bo'lib bormoqda;

aksiologik yondashuv bizga al-Farobiy merosini qat'iy dogmalar to'plami sifatida emas, balki raqamli jamiyat rivojlanishini gumanizm, uyg'unlik va aql-idrok ideallariga yo'naltirishga qodir bo'lgan dinamik qadriyatlar tizimi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

XULOSA

Umuman olganda, raqamli davr nafaqat texnologiyalarning rivojlanishi, balki insoniyatning ma'naviy-axloqiy qarashlari tubdan qayta ko'rib chiqilayotgan davrdir. Global tarmoq, sun'iy intellekt va virtual borliq an'anaviy axloq meyorlarini yangicha talqin qilishni taqozo etmoqda.

Abu Nasr al-Farobiyning aksiologik merosini raqamli davrda qayta talqin qilish quyidagi xulosalarga olib keladi:

Birinchidan, texnologiya axloqqa bo'ysunishi kerak. Chunki raqamli transformatsiya insonni ma'naviy qashshoqlashtirmasligi, balki uning fozillik imkoniyatlarini kengaytirishi lozim.

Ikkinchidan, yangi axloqiy paradigma Farobiy ilgari surgan "insonparvarlik", "adolat" va "saodat" tushunchalarini raqamli formatda qayta tiklashni taqozo etadi.

Uchinchidan, Sun'iy intellekt va yuqori texnologiyalar davrida inson o'z aqliy faoliyatining natijalari uchun Farobiy ta'riflagan "oliy rahbar" (muallim) kabi yuksak axloqiy javobgarlikni his etishi shart.

To'rtinchidan, har qanday raqamli yechim Farobiy aytgan «inson saodati»ga xizmat qilishi kerak.

Beshinchidan, texnologiya qanchalik avtonom bo'lmasin, axloqiy tanlov huquqi va javobgarligi insonda qolishi shart.

Oltinchidan, global tarmoq «johil shahar» emas, balki ma'rifat va ezgulik tarqatuvchi «fozil makon»ga aylanishi uchun Farobiy merosi ma'naviy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Natijada insonlarda raqamli ma'naviyat shakllanadi.

Darhaqiqat, raqamli davrda axloqiy paradigmaning o'zgarishi texnologiyani "axloqiy agent" darajasiga ko'tardi. Al-Forobiyning aksiologik talqini shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya insonning ma'naviy subyektligini yemirishi emas, balki uning "fozil"lik darajasiga ko'tarilishiga xizmat qilishi lozim. Zero, texnologiyaning qiymati uning texnik imkoniyatlari bilan emas, balki insoniy fazilatlarni nechog'liq rivojlantirishi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. / Таржимон ва сўз боши муаллифи А. Ирисов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2016. – 320-б.
2. Абу Наср Форобий. Бахт-саодатга эришув ҳақида //Абу Наср Форобий. Рисолалар. – Т.: Фан, 1975. – Б. 64.
3. Хайруллаев М.М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. –Т.: Фан, 1971. – 312 б.
4. Беркинов О.Т. Цифровое общество и концепция добродетельного общества альФараби: теоретико-парадигматический анализ // «Эл-Фараби мұрасы және жаһандық өркениет: философия, ғылым, руханият тоғысы» атты халықаралық



ғылыми-тәжірибелік конференция материалдары. V халықаралық Фараби форумы. – Алматы: Қазақ университеті, 2026. – С.368-370.

5. Гаффарова Г.Г. Изменение этической парадигмы в цифровую эпоху: аксиологическая интерпретация наследия аль-Фараби // «Әл-Фараби мұрасы және жаһандық өркениет: философия, ғылым, руханият тоғысы» атты халықаралық ғылыми-тәжірибелік конференция материалдары. V халықаралық Фараби форумы. – Алматы: Қазақ университеті, 2026. – С.406-411.

6. Сейтахметова Н.Л. Дискурс об интеллекте в учении Аль-Фараби преемственность идей в эпоху цифровизации и искусственного интеллекта // «Әл-Фараби мұрасы және жаһандық өркениет: философия, ғылым, руханият тоғысы» атты халықаралық ғылыми-тәжірибелік конференция материалдары. V халықаралық Фараби форумы. – Алматы: Қазақ университеті, 2026. – С.7-9.

7. Bostrom, N., Yudkowsky, E. The Ethics of Artificial Intelligence // Cambridge Handbook of Artificial Intelligence / Ed. by K. Frankish, W. M. Ramsey. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014. – P. 316–334.

8. Castells, M. The Rise of the Network Society / M. Castells. – Oxford : Wiley-Blackwell, 2010. – 656 p.

9. Capurro, R. Digital Humanism: An Ethics for the Information Age // Information Sciences. – 2017. – Vol. 24, No. 2. – P. 102–115.

10. Floridi, L. The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality / L. Floridi. – Oxford : Oxford University Press, 2014. – 272 p.

11. Floridi, L. The Information Society condition: Ethics, Ontology, and Technology in the Information Age. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 288 p.

12. Naisbitt, J. High Tech / High Touch: Technology and Our Search for Meaning. – New York: Broadway Books, 2001. – 288 p.

13. Vallor, S. Technology and the Virtues: A Philosophical Guide to a Future Worth Wanting. – New York: Oxford University Press, 2016. – 320 p.